

**KORPORATIV TUZILMALAR INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA  
TA'SIR ETUVCHI OMILLAR****FACTORS INFLUENCING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF  
CORPORATE STRUCTURES****<sup>1</sup>Qurbonov Javlonbek  
Jurabekovich***<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasida professori v.b., PhD., dotsent.**E-mail: [moliyachi@gmail.com](mailto:moliyachi@gmail.com)**ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-3550-7296>***Annotatsiya  
Annotation**

*Uzb* - Maqolada korporativ tuzilmalar investitsion jozibadorligining iqtisodiy mohiyati tadqiq etilgan bo'lib, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, korporativ tuzilmalar investitsion jozibadorligini ta'minlash yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

*Eng* - The article explores the economic essence of the investment attractiveness of corporate structures and analyzes the internal and external factors influencing it. In addition, scientific conclusions have been developed to ensure the investment attractiveness of corporate structures.

**Kalit so'zlar:  
Keywords:**

❖ *investitsiya, investitsion jozibadorlik, investor, aksiyadorlik jamiyati, korporativ tuzilma, dividend, moliya, foyda, samaradorlik.*

❖ *investment, investment attractiveness, investor, joint stock company, corporate structure, dividend, finance, profit, efficiency.*

**Kirish.**

Bugungi kunda korporativ tuzilmalarning mamlakatda faoliyat yuritishi bir tomondan yalpi ichki mahsulot hajmining oshishiga va davlat budjeti uchun soliq tushumlarini ko'paytirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va ularning itisodiy farovonligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bois, mamlakat iqtisodiyoti uchun korporativ tuzilmalar faoliyatining kengayishi va izchil rivojlanishi har tomonlama muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, korporativ tuzilmalar rivoji moliyaviy resurslarning mavjudligi hamda ulardan samarali foydalanishga bevosita bog'liq. Boshqacha aytganda, korporativ tuzilmalar doirasida moliyaviy faoliyat va munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi

ularning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

R.Saidov va X.Jo'rabekova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida mamlakatimiz hududlarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy masalalar tadqiq etilgan bo'lib, mamlakatimiz rivojlanishida investitsiyalarni jalb qilishdagi o'rni, mavjud muammolar hamda imkoniyatlar atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatimizda so'nggi yillarda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar dinamikasi tahlil qilingan holda mavzu doirasida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [1].

S.Sattorov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida investitsion jozibadorlikning mazmun-mohiyati, mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari, investitsion faoliyatni tashkil etishda risklarning ta'siri va ularni kamaytirish yo'llari tadqiq etilgan [2].

S.Akramov tomonidan nashr qilingan ilmiy maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni ta'minlash yo'llari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligiga ta'siri tahlil qilingan, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan fond birjasiga joylashtirilgan qimmatli qog'ozlar aylanmasi tahlili amalga oshirilgan hamda ular bo'yicha ilmiy xulosalar taqdim etilgan [3].

M.R.Niyozmetov va B.S.Mamatovlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishida investitsiyaviy jozibadorlik tushunchasining iqtisodiy mohiyati hamda uning investitsiyaviy muhit va faollik tushunchalari bilan o'zaro bog'liqligi qayd etilgan [4].

B.Sh.Mamatov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida esa xususiy va davlat ishtirokidagi tijorat banklarida aktivlar va kapital samaradorligi ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan. Davlat ulushi va moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari o'zaro ta'siri o'rganilgan. Bank tizimiga xususiy kapital jalb qilish orqali samaradorlikni oshirish yo'llari to'g'risida ilmiy xulosalar keltirilgan [5].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Korporativ tuzilmalar investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar mavzusida ilmiy tadqiqot ishimizni amalga oshirishda nazariy tahlil, guruhlashtirish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**


Korporativ tuzimlarda moliyaviy munosabatlarni tashkil etishda eng asosiy masalalardan biri bo'lib, moliyaviy resurslarni shakllantirish hisoblanadi. Arzon va qulay tartibda moliyaviy resurslar jalb etish bevosita korporativ tuzilmalarning amaldagi investitsion jozibadorligiga bog'liqdir. Korporativ tuzimlarning investitsion jozibadorligi qanchalik yuqori bo'lsa, ular tomonidan moliyaviy resurslar jalb etish ham shuncha oson bo'ladi. Shu sababli, hozirgi kunda korporativ tuzimlarda investitsion jozibadorlikni oshirishga e'tibor qaratilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda, quyida korporativ tuzimlarda investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida ayrim ilmiy mulohazalarimizni keltirib o'tamiz.

Korporativ tuzimlarda investitsion jozibadorlik haqida to'xtalishdan oldin, ularga moliyaviy resurslarini joylashtiruvchi investorlar va kreditorlar to'g'risida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. "Investor kim va uning maqsadi nima" – degan, savolga javob berib o'tish, ma'lum bir tomondan kompaniyalar investitsion jozibadorligi tushunchasi ochib berishga xizmat qiladi. Umuman olganda, investor – qo'lida kapitali bor va ushbu kapitalini biror bir loyihaga kiritib, undan foyda ko'zlaydigan shaxsdir. Uning maqsadi esa, ushbu kapitalidan samarali foydalanish, ya'ni loyihalarga pul kiritishi natijasida maksimal foyda olish hisoblanadi. Agar, loyihaga sarmoya kiritib yuqori foyda olsa, u bunday imkoniyat beruvchi loyihaga mablag'larini yo'naltirishi mumkin. Banklar ham xuddi shunday, ularning asosiy faoliyati xo'jalik subyektlariga ma'lum bir muddatga kredit ajratish hisobiga daromad olish hisoblanadi. Demak, banklar ham investorlarning ham manfaati moliyaviy resurslarini loyihalarga joylashtirib, daromad olish hisoblanar ekan. Bunda asosiy masala bo'lib, moliyaviy resurslar bo'yicha xavfsizlikning ta'minlanishi, undan samarali foydalanishi va o'z vaqtida qaytib kelishi

asosiy o‘rinni egallaydi. Bu esa bevosita moliyaviy resurslarga ehtiyoji mavjud xo‘jalik subyektlar investitsion jozibadorlik darajasining yuqori ekanligiga bog‘liqdir.

Korporativ tuzilmalarda investitsion jozibadorlikni ta‘minlashda va uni bosqichma-bosqich oshirishda o‘z ta‘sirini ko‘rsatuvchi omillarni ichki va tashqi ta‘sir etuvchi omillarga ajratishimiz mumkin. Bu omillarni

o‘rganishimiz hamda korporativ tuzilmalar faoliyati davomida alohida e‘tibor qaratishimiz, avvalo moliyaviy boshqaruv samaradorligini ta‘minlaydi, bu esa keyinchalik ularning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Investitsion jozibadorlikka ta‘sir etuvchi ichki omillarning ayrimlarini quyidagi 1-rasmda keltirib o‘tamiz.



**1-rasm. Investitsion jozibadorlikka ta‘sir etuvchi ichki omillar**

Ichki omillar sirasiga korporativ tuzilmada puxta o‘ylangan biznes rejalarining mavjudligi, boshqaruv strukturasi optimal shakllantirilganligi, sifat menejmenti tizimining joriy etilganligi, yuqori malakali va tajribali ishchi-xodimlarga ega bo‘lishi, bozorda raqobatbardosh o‘ringa ega ekani, moliya bozorlariga qimmatli qog‘ozlarni joylashtirib faol ishtirok etayotgani, minoritar aksiyadorlar manfaatlarining ta‘minlanib kelinayotgani, eng yuqori ulushga ega bo‘lgan aksiyadorlarning ulushi esa nisbatan kichik

bo‘lishi, shuningdek, samarali dividend siyosatining yuritilayotganini kiritish mumkin.


Ushbu omillarning har biri korporativ tuzilmada investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Investitsion jozibadorlik masalasiga faqat investitsiyalarni jalb etish nuqtai nazaridan emas, balki korporativ tuzilmaning brendini mustahkamlash va bozordagi nufuzini oshirish maqsadiga ham alohida e‘tibor qaratiladi. Bu esa turli iqtisodiy sharoitlarda ham korporativ tuzilmaga turli xil darajadagi kontragentlar



bilan samarali hamkorlik qilish imkonini beradi.

Korporativ tuzilmalarda investitsion jozibadorlikni oshirish uchun tashqi omillar sifatida, investorlarni mamlakatga jalb etish bo‘yicha davlat siyosati, davlatning iqtisodiy holati, aholining iqtisodiy farovonligi, mamlakatda transport va telekommunikatsiya xizmatlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, elektr

energiya va gaz ta‘minotining barqarorligi, jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari, investorlar usun davlat tomonidan taqdim etiladigan soliqlar bo‘yicha imtiyozlar, davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi, investorlar huquqlarining kafolatlanganligi kabilarni keltirishimiz mumkin. Ushbu omillaning ayrimlari bo‘yicha quyida alohida to‘xtalib o‘tamiz (2-rasm).



**2-rasm. Investitsion jozibadorlikka ta‘sir etuvchi tashqi omillar**

Korporativ tuzilmalar faoliyatini boshlashidan oldin aniq va uzoqni ko‘zlagan biznes-rejaning ishlab chiqishi hamda uni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni, korporativ tuzilma egalarida ba‘zi holatlarda moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug‘ilsa ko‘zlangan maqsadga erisha olmaslik ehtimoli ortadi. Bunday holatlarda loyihani moliyalashtirish uchun resurslar jalb etish uchun turli xil moliyaviy vositalardan foydalaniladi. Bunday sharoitga ega loyihalarga pul kiritish, yuqorida ta‘kidlaganimizdek,

banklar va investorlar manfaatiga to‘g‘ri keladi. Korporativ tuzilmalarning ustav kapitalining hajmi ham investitsion jozibadorlikni oshiradi, chunki bu holat bir tomondan kompaniyaning moliyaviy mustaqillik koeffitsienti yuqoriligini, ikkinchi tomondan uzoq yillik faoliyat yuritish rejasiga ega ekanligini anglatadi. Bu holat esa, investorlarning jamiyat faoliyatiga bo‘lgan ishonchini va kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, korporativ tuzilmalarda investitsion jozibadorlikni oshirish kelgusida ularning faolyaitini

barqarorlashtirish, arzon moliyaviy resurslar jalb etish hamda kompaniya biznes qiymatini oshirish imkoniyatini yaratadi.

#### **Xulosa va takliflar.**

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy tadqiqotlarimiz doirasida quyidagi ilmiy xulosalarimiz ishlab chiqildi:

- investitsion jozibadorlikni ta'minlash yoki uni yanada oshirish murakkab jarayon emasligi, balki investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillarga e'tibor berish korporativ tuzilmalarda investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi;
- korporativ tuzilmalar faoliyatini monitoring qilib borilishi kelgusida ularning

investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi;

- investitsion jozibadorlikni ta'minlashda kompaniya xodimlarining malaka tajribasi hamda intellektual qobiliyati muhim o'rin egallaydi;
- korporativ tuzilmalarda ichki va tashqi omillarga e'tibor qaratish, ularning turli darajadagi kontragentlari bilan muvaffaqiyatli hamkorliklarni tashkil etishga zamin yaratadi;
- investitsion jozibadorlikni ta'minlashga yoki uni oshirishga qilingan moliyaviy boshqaruv xizmatlari kelgusida kompaniya biznes qiymatini oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Boltabayevich, Saidov Rasul. "Mamlakatimiz hududlarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'nalishlari." *Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali* 1.5 (2024): 134-137.
2. Sattorov, Sh. "Iqtisodiyotni barqarorlashtirishda investitsion jozibadorlikning ahamiyati". *FINANCE, MONEY AND CREDIT* 1.1 (2024): 1-5.
3. Акрамов, Сауджан. "Пути повышения инвестиционной привлекательности акционерных обществ в нашей стране." *Экономика и инновационные технологии* 2 (2017): 253-261.
4. Niyazmetov, Mansur Ruzmatovich, and Baxodir Safaralievich Mamatov. "Investitsiyaviy jozibadorlik xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar talqini." "Moliyaviy texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali 3-son 2023-yil.
5. Mamatov, Baxromjon Shavkat o'g'li. "Tijorat banklari ustav kapitalidagi davlat ulushining investitsion jozibadorlikka ta'siri." *Innovatsion texnologiyalar* 1.4 (48) (2022): 109-112.